

O'QITUVCHINIG ISH FAOLIYATIDA NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti assistenti

Sadriiddinova Zarina Shuhrat qizi

Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti 1-bosqich talabasi

Bozorboyeva Ruxshona Dilshod qizi

Annotatsiya: Ushbu maqola kelajagimiz egasi bo'lmish yosh avlodning ta'lim tarbiya jarayonida o'qituvchining nutqiy mahoratini oshirishda nutq xususiyati hamda texnikasining o'rni haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Nutq, nutq vositasi, nutq texnikasi, nafas, ovoz, urg'u, to'xtam (pauza), diksiya, intonatsiya, tembr, ritm, monotonlik, diapazon.

O'qituvchining asosiy quroli-bu, nutqidir va shu nutqi orqali o'quvchilarga bilimni yetkazib beradi. Zero, ta'lim va muloqotning kaliti – nutq bilandir. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bolaning savodi chiqadi, nutqi rivojlanadi, hamda kelajakdagi bilimlar o'chog'ining poydevori shakllanadi. To'g'ri hozirda fan texnika izchil rivojlanib kelayotgan davrda yashab kelmoqdamiz. Ta'lim tarbiya jarayonini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, ko'rgazmalik asosida ish olib borish mumkin. Lekin bular dars o'tish vositasidir. Avvalambor, o'qituvchning fikrlari terang bo'lmog'i zarur. Tafakkuri tiniq o'qituvchining talaffuzi ham, nutqi ham aniq bo'ladi. Shu orada nutq haqida qisqacha ma'lumot berib o'tsam. Nutq – tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan holda reallikka aylangan fikrdir va u ikki shaklda namoyon bo'ladi. Birinchisi ichki nutq – bu o'qituvchining ongida hosil bo'lib, hali amalga oshirilmagan fikr o'ylar mulohazasidir. Ikkinchisi tashqi nutq bu ham o'z navbatida o'g'zaki va yozma nutq ko'rinishida namoyon bo'aladi. O'qituvchining o'gzaki nutqi ancha faol jonli jarayondir. U monolog, dialog hamda polilog shakliga ega. Monolog o'quvchiga qaratilgan ongli murojati hamda bayonotdir. Dialog o'qituvchi hamda o'quvchining suhbat jarayoni bo'lsa, polilog o'qituvchi va bir nechta o'quvchilar o'rtasidagi suhbatdir.

Yozma nutq avvalo, u manba. Xohlagan paytda uni qayta o'qish, tuzatish, boshqa so'z va so'z birikmalri bilan almashtirish mumkin. Bunga doklad, annotatsiya, referat va boshqalar kiradi. Og'zaki nutqdagi ma'no rang barangligi, o'qituvchi hamda o'quvchi munosabatidagi tasdiq yoki inkor alomatlari, ohang, talaffuz, imo-ishora vositalari orqali amalga oshirilsa, yozma nutqda esa bu xususiyatlarni ifoda etuvchi boshqa belgilar mavjud. Bular imlo va punktuatsion normalaridir.

Nutqiy mahoratning ikki omili bor. O'qituvchi bu ikki omilni puxta o'zlashtirish kerak. Birinchisi nutq xususiyatlari ya'ni nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi,

sofligi, boyligi, ifodaviyligi, ta'sirchanligi, maqsadga muvofiqligi bo'lsa, ikkinchisi nutq texnikasidir. Bunga og'zaki nutqdagi diksiya, pauza, urg'u, ohang, intonatsiya, yozma nutqdagi tinish belgilarini o'z o'rnida qo'llay bilish kiradi.

O'qituvchi nutqining to'g'riligi deganda, eng avvalo uning adabiy til me'yorlariga mos kelishi tushiniladi. O'qituvchi, shu bilan birgalikda, nutqning to'g'ri bo'lishi uchun, urg'u hamda grammatik normalarni puxta o'zlashtirishi zarur. Dars jarayonida o'qituvchi biror bir hikoyani yoki mavzuni o'quvchilarga so'zlab berar ekan tilning fonetik, morfologik, sintaktik qonun qoidalarini chuqur o'zlashtirib, nutqida zaruriy grammatik shakllarini tanlay bilishi va ularni o'z o'rnida qo'llay bilishi muhimdir.

Nutqni aniqligi, so'zning o'qituvchi ifoda etayotgan narsa-hodisaga mos va muvofiq kelishidir. O'qituvchi dars mavzusi haqida qanchalik chuqur bilimga ega bo'lsa, nutq shunchalik aniq bo'ladi va erkin fikr yuritishga imkon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida nutqning aniq bo'lishiga xizmat qiladi.

Nutq mantiyqiyligi aniqlikka suyanadi. Bunada predmet aniqligi ham, tushunchaviy aniqlik ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi nutqi noaniq bo'lsa u mantiyqiyligini yo'qotadi. Nutqda mantiyqlikka erishish uchun unda qo'llangan so'zlar bilan ularning predmetlik ma'nolari mos bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, har bir so'z nutqda qo'llanganda o'ziga biriktirilgan ma'nonigina ifodalashi lozim.

Nutqning sofligi adabiy til me'zonlariga mos kelishi, g'ayriyadabiy til unsurlardan xoli bo'shidir. O'qituvchi dars vaqti mahalliy dialekt va she'valarga xos so'zlardan, o'rinsiz qo'llaniladigan chet so'zlar, masalan "tak", "uji" so'zlari, nutqda ortiqcha takrorlanadigan va hech qanday xususiyat ega bo'lmagan so'zlar, ya'ni "haligi", "anaqa", "ho'sh" va shunga o'xshash parazit so'zlardan hamda jargonlardan qochishi kerak. Bu esa o'qituvchi nutqning sofligini buzadi. Shu bilan birgalikda o'qituvchi dars jarayonida ilmiy uslub, idoraviy atamalardan foydalanmaslikka harakat qilish kerak. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bu so'zlarning mohiyatiga tushunib yetmaydi va ular ongida chalkashliklar yuzaga keladi. O'qituvchi o'z nutqining sofligiga erishishi uchun og'zaki nutq madaniyati va nutq texnikasini yaxshi bilish va unga amal qilishi bilan birgalikda nazorat qilib borishi zarur.

Ko'p so'z zaxirasiga ega bo'lishlik va undan unumli, o'rinli foydalana olishlik nutqiy mahoratining muhim belgisi hisoblanadi va bu belgi o'qituvchi nutqning qaydarajada boyligini ko'rsatib beradi. So'zlarning harakteriga ko'ra turlari, ya'ni sinonimik, omonimik, antonimik xususiyatlarini bilish nutq chiroyini hamda boyligini belgilaydi.

O'qituvchi nutqining ifodaviyligini oshirish uchun kerakli, so'z va so'zbirikmalari, obrazli iboralarni topishi, tanlashi va o'z o'rnida qo'llay bilishi lozim. Ifodaviylik o'quvchi tomonida nutqning qabul qilinishini ta'minlovchi mezon hisoblanadi.

O'qituvchi nutqining ta'siri esa mavzu haqida keng qamrovli bilimga ega bo'lish, qiyofa, ovoz kabi nolisoniy faktorlarga ham bog'liqdir. O'qituvchi so'zlayotganida o'quvchining ko'z o'ngida tasviriy manzara hosil qila olsa, obrazli fikr yuritsa, o'z so'zini ishontira olsa, qiziqтира nutqi ra'von bo'ladi va ta'sir darajasi oshadi.

Yuqorida men nutqning asosiy xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumot berib o'tdim. Endi nutq vositalari deb yuritiluvchi nafas, ovoz, diksiya, urg'u, to'xtam (pauza), intonatsiya, temp va ritm haqida qisqacha ma'lumot bersam. Bularning barchasi nutq texnikasini tashkil etadi. Nutq xususiyatlari nazariy ma'lumotlarga tayansa, nutq texnikasi esa ko'proq amaliy mashg'ulotlarga tayanadi.

Bizga ma'lumki inson organizmi uchun nafas olish hayot bag'ishlovchi fiziologik funksiyadir. Shu bilan birga u nutq energiyasi bazasi bo'lib ham xizmat qiladi. O'qituvchi o'z nutqida unga to'g'ri munosabatda bo'lishi nihoyatda muhimdir. Chunki ifodali tarzda o'qish va so'zlash nafas zamirida yuzaga keladi va ta'sir kuchini namoyon qiladi. Ya'ni tovush va nutqning aniq, burro, ravon hamda jarangdor bo'lishini ta'minlaydi. Buning uchun o'qituvchi muntzam nafasni yaxshilashga xizmat qiladigan mashqlar bilan shug'illanib turishi maqsadga muvoffiq bo'ladi deb o'ylayman.

O'qituvchining ish faoliyatida ovoz ham nafas singari muhim o'rin egallaydi. Ko'p olimlar olib brogan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, past ovoz o'quvchilar tomonidan yaxshi idrok etiladi va yaxshi o'zlashtiriladi. Yuqori ovoz o'quvchilarni ham, o'qituvchining o'zini ham tez charchatib qo'yadi. O'qituvchi kasb kasalliklarining 40,2 foizini ovoz kasb kasalligi tashkil qiladi. Shuning uchun o'qituvchidan tovushning xossalari, kuchi, tembri, baland – pastligi kabilarning normal holatda bo'lishi va me'yorga kelishi uchun muntazam mashqlar talab etiladi. Unli tovushlarni alohida baland va past ohangda, undosh tovushlar bilan so'z bo'g'inlari hosil qilish asnosida talaffuz qilish, unliarning hosil bo'lish o'rniga, cho'ziq-qisqaligiga, lablangan va lablanmaganligiga e'tibor qilgan holda talaffuz qilib, artikulyatsion mashqlar qilishdan aslo charchamaslik kerak.

Diksiya lotincha so'zdan olingan bo'lib, "diction" – aniq, burro talaffuz qilish ma'nosini ifodalaydi. Ya'ni, diksiya o'qituvchi nutqining o'quvchilar tomonidan to'g'ri tushinilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga diksiya orfoepiya bilan bog'liq nutq vositasi bo'lib, tovushlarning ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra sifat darjasini yaxshi bilishni va to'g'ri talaffuz qilishni taqozo etadi. Diksiyada shuningdek, so'zlarning lug'aviy va ko'chma ma'nolarini bilish ham talab etiladi. Diksiya bilan bevosita aloqador bo'lgan nutq vositalaridan yana biri urg'udir. So'zlarning to'g'ri talaffuz etilishida urg'uning o'z o'rne bor.

O'qituvchi dars mavzusi yoki hikoyani so'zlash jarayonida bir to'xtab olib, o'pkani qayta havoga to'ldirib nafas olish va nutqda davom etishga asoslangan bu

kichik tanaffus pauzadir. Pauza o'qituvchining fikrini o'quvchiga aniq va ta'sirli yetib borishiga imkon tug'diribgina qolmay, u balki dars vaqtida loqayd, sust ishtirok etayotgan o'quvchining fikrini jalb qilishga ham qaratilgan bo'ladi. Yozma nutqda pauza tinish belgilari bilan ifodalandi.

Intonatsiya nutqning ohangi, uning maromiymusiqiy tomoni, tovushning navbatma-navbat ko'tarilishi va tushishidir. Shu bilan birgalikda intonatsiya nutqning sintaktik ma'nolari ya'ni darak, so'roq, va buyruqni ham ifodalaydi.

Tembr tovushning rangdorligi, yorqinligi hamda uning yoqimligidir. Ritm yunoncha so'z bo'lib, vazndosh, ohangdosh demakdir. Ya'ni so'z va bo'g'implarning aytilishi muddati va to'xtash, nutq va ifodalarning navbat bilan o'z o'rnida ishlatilishini bildiradi. Ritm nutqning eng asosiy qismidir chunki, nutq ohangi va to'xtamlar o'quvchilarga ham beixtiyor o'zgacha hissiy ta'sir ko'rsatdi. So'zlayotganda obrazga kirish, ovozni kerakli joyda pasaytirish, ohista gapirish o'qituvchi mahoratiga bog'liqdir.

Yuqorida aytib o'tilgan nutq vositalaridagi diksiya, pauza, urg'u, ohang, intonatsiya bularning hammasi talaffuz me'yorlariga kiradi. O'qituvchi boshlang'ich sinf darsliklaridagi she'r, hikoya, ertaklardagi voqealarni talaffuz me'yorlariga rioya qilib o'qisa, uning badiiy qimmati oshadi. O'qituvchining to'g'ri talaffuzi natijasida o'quvchilarda, o'qituvchidan o'rnak olgan holda, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga bo'lgan ko'nikma shakillanadi va rivojlanadi. O'qituvchi dars o'tish jarayonida yana bir muhim me'yorga e'tibor qaratishi zarur. Bu adabiy til me'yorlaridir. **Adabiy tilda "kelyapti" so'zi bo'la turib uni o'qituvchi shevada "kelutti" yoki "kevoli" deb qo'llasa, bu no'to'g'ri bo'ladi. Umuman o'qituvchi dars vaqtida she'vaga xos so'zlardan qochish kerak deb o'ylayman. Shu bilan birgalikda o'qituvchi o'z nutqini tashkil etishda kelishik me'yorlariga ham jiddiy e'tibor qaratishi zarur. Chunki o'quvchilar o'qituvchidan andoza oladi. "Kimni kitobi?" deb savol bermasdan "Kimning kitobi?" deb savol berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar o'qituvchi nutqida xatoliklarga yo'l qo'ysa, o'quvchilarda ham shu holat kuzatiladi. Bundan tashqari o'qituvchi o'z nutqda monotonlikdan qochib, diapazonlikni ham hisobga olish kerak. Diapazon tovush hajmi bo'lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohang bilan belgilanadi. Diapazon qisqarishi nutqning bir ohangli bo'lib qolishiga sabab boladi. Bu holat o'quvchilarning uyqusini keltirib, dars mazmunini o'zlashtirishni susaytiradi.**

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, o'qituvchining nutqi aniq, ravon, gramatik jihatdan to'g'ri tuzilgan, adabiy til me'yorlariga hamda talaffuz qoidalariga bo'ysungan holda ma'ruzaning boshidan oxirigacha izchil bayon qilinishi lozim. Ana shunday nutq asosida o'rganilayotgan bilm o'quvchi xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Buning uchun o'qituvchilardan tinimsiz izlanish, filologik bilim va muttasil nutqiy mashq qilish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qo'ng'irov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent.: “Oqituvchi”, 1992
2. Jumanov I. Badiiy so'z mahorati. – Toshkent., 2015
3. Jumaniyozov R. Ta'lim, tarbiya, taffakur, taraqiyot. – Toshkent., 2015
4. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. – Toshkent.: “Adolat”, 2005
5. Mirxalilova N.A. Use of the "Working with objects" methodology in preparing for international studies // American Journal of Research in Humanities and Social Sciences // ISSN (E): 2832-8019 Volume 13, | June, 2023. Pp: 152-154. www.americanjournal.org.
6. Mirxalilova N.A. TIMSS xalqaro tadqiqoti va uning ahamiyati // Муғаллим ҳәм ўзлиқсиз билимлендириў. Илмий-методикалық журнал. 2022/5. 36-39bet.
7. Mirxalilova N.A. Funktsional savodxonlik tushunchasi // **O'zbekiston Milliy universiteti xabarлари, 2023, [1/2] ISSN 2181-7324. Falsafa <https://science.nuu.uz/.Social> sciences. 216-218 b**
8. Mirxalilova N.A. O'qish, matematik va kreativ savodxonlik funksional savodxonlikning asosi // Yosh olimlar Axborotnomasi. Maxsus son (4)2023 104-109 b.
9. Mirxalilova N.A. Use of the "working with objects" methodology in preparing for TIMSS international studies // «Әуезов оқулары-21: жаңа қазақстан-еліміздің болашағы» М. Әуезов атындағы оңтүстік Қазақстан университетінің 80 жылдығына арналған халықаралық ғылыми-тәжірибелік конференция еңбектері. ТОМ 2-1 ШЫМКЕНТ 2023 UDC 37 292-293 b.
10. 6. Mirxalilova N.A. O'qish savodxonligini oshirishda PIRLS xalqaro tadqiqotining o'rnini // Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo, echimlar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari 18-noyabr 2022-yil. 175-178 b.
11. Mirxalilova N.A. Funktsional savodxonlikni shakllantirish vositalari // Boshlang'ich ta'lim tizimiga integrativ yondashuv: nazariya va amaliyot. Respublika ilmiy va ilmiy-nazariy anjuman materiallar to'plami
12. Mirxalilova N.A. Xalqaro TIMSS 2019 tadqiqotida tabiiy fanlar savodxonligi // “Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari t o' p l a m i 2022 yil 22-23 dekabr 732-735.
13. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlik darajalarini oshirish // “Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari t o' p l a m i
14. Mirxalilova N.A. “Pedagogik ta'lim klasteri vositasida O'zbekistonda matematika ta'limini samaradorligini oshirish usullari” // TVCHDPI “Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va echimlar” xalqaro ilmiy amaliy konferensiya 2021-yil 25-26 iyun 160-165 betlar.
15. Mirxalilova N.A. TIMSS 2023 mathematics assessment scope // Annals of Forest Research <https://www.e-afr.org/> 2022. 5399-5404-b.

16. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich ta'limda funksional savodxonlik darajalarini oshirish // [Home /Archives / Vol. 18 No. 2 \(2023\): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 18 | Часть2.
http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/4542](#). 174-177 b.
17. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich ta'limda TIMSS tadqiqotlari uchun matnli masalalar // “Ilm-fan taraqqiyoti: muammolar, yechim va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro qo‘shma ilmiy-amaliy konferensiyasi <https://zenodo.org/records/10444474> 2023-yil 19-21-dekabr.
18. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. ”Uzluksiz ta'limda kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida” // “Uzluksiz ta'lim” jurnali 2021 yil 5-son 9-12 betlar.
19. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. Funksional savodxonlik tushunchasi va uni shakllantirish usullari // Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў. Илмий-методикалык журнал. 2023-yil. 2/3- san. 340-346-bet.
20. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. ”PISA xalqaro dasturida matematik savodxonlik” // TVCHDPI “Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va echimlar” xalqaro ilmiy amaliy konferensiya 2021-yil 25-26 iyun 1476-1480 betlar.
21. Mirxalilova N.A., P.T.Abduqodirova. ”Matematik savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish shakllari va metodlari” // O‘zbekiston Respublikasi yosh olimlar kengashi.”Fan va ta'limni rivojlantirishda yoshlarning o‘rni” mavzusidagi respublika ilmiy va ilmiy-nazariy anjuman. 2021-yil 30-sentabr 100-101 betlar.
22. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova, P.T.Abduqodirova. Talabalarda matematik savodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish omillari” 476-480 betlar.
23. Mirxalilova N.A., Davlatova M.A. TIMSS xalqaro baholash dasturida miqdor tushunchasi va uning turlari // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 9 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1.
24. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. Funksional savodxonlikni shakllantirish usullari // “Uzluksiz ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman. 2022/12/20.
25. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. To‘rtinchi sinfda tabiiy fanlar savodxonligi bo‘yicha TIMSS 2023 tadqiqotida baholanadigan mavzular // “Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni rivojlantirishning zamonaviy holati va istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari t o‘ p l a m i. 559-562 b. 2022/12/22.
26. Mirxalilova N.A., S. S.Akbarova . Xalqaro TIMSS 2019 tadqiqotida tabiiy fanlar savodxonligi // [Home /Archives / Vol. 18 No. 2 \(2023\): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 18 | Часть-2 .
http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/4541](#). 169-173 b.